

## INGLIZ BADIY ASARLARIDA METAFORAGA OID JUMLALAR

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi  
M.T.Gapparova 4-kurs talabasi  
G.SH. Otamurodova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz badiiy asarlarida ma'no ko'chish turlaridan biri bo'lgan metafora, ya'ni o'xshatishning ahamiyati va o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, barcha fikrlar misollar orqali tahlil qilinadi va ularning qo'llanilish o'rinlari o'rganiladi.

**Tayanch tushunchalar:** metafora, o'xshatish, metaforik birikmalar, sinekdoxa.

**Abstract:** This article discusses the importance and role of metaphor, which is one of the types of meaning transfer in English literary works. Also, all points are analyzed through examples and are studied their using places.

**Key words:** metaphor, simile, metaphoric words, synecdoxa.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение и роль метафоры, которая является одним из видов передачи смысла, в английских литературных произведениях. Также все моменты разбираются на примерах и изучаются места их применения.

**Ключевые слова:** метафора, передача смысла, метафорические единицы, синекдокса.

Bugungi kunda stilistik vositalarni badiiy adabiyotlarda ko'p uchratishimiz mumkin va ular badiiy adabiyotlarda emotsionallikni va tas'viriylikni yanada oshirishga yordam beradi. Ma'no ko'chishning bir nechta turlarini ko'rib o'tishimiz mumkin. Metafora, metonimiya, o'xshatish, mubolag'a, sinekdoxa va shu kabilarni misol sifatida ko'rishimiz mumkin. Biz kundalik muloqotimiz davomida ham ma'no ko'chish turlariga ko'p duch kelamiz, "sovuq xabar", "jallod quyosh", "issiq jon" kabi jumlar bunga yaqqol misoldir.

Tilimizdagi so'zlar ko'p ma'noli bo'lganligi sababli ham biz ma'no ko'chishlariga ko'p duch kelishimiz mumkin. Yuqorida berilgan misollarga qaraydigan bo'lsak, "sovuq xabar" so'z birikmasidagi sovuq – ob-havo haroratiga nisbatan ishlatiladi, past harorat, past temperature. Bu yerda bu so'z "odamlarga yoqmaydigan, eshitganlarida xush kelmaydigan bir xabar ma'nosida ishlatilgan" va xabar xuddi sovuq ob-havodek qaralyapti. Qolgan misollarda jallod- o'lim jazosini ijro etuvchi, qadimda saroylarda shohlar kimnidir o'lim jazosiga buyurishsa, buni jallodlar amalga oshirgan, bu so'z birikmasida esa quyosh jallodga o'xshatilyapti, xuddiki odamlarni jazolayotgandek. Issiq so'zi har xil ma'nolarda qo'llanilishi mumkin: ob-havoga nisbatan, taomga nisbatan ishlatilgan holatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda esa "issiq jon" so'zi "tirik odam" ma'nosida ishlatilgan.

Metaforaning asosida — metaforik solishtirish, yorqin, namoyon timsollarni qiyoslanadi. Nomlanish "Ko'chirish" ma'nosini anglatuvchi yunoncha "Metafora" so'zidan paydo bo'lgan. Darhaqiqat, ikki buyum yoki hodisa solishtirilayotgan paytda birining alomatlari yoki sifatleri boshqasiga ko'chadi. Metafora tushunchasi fanga

kiritilgandan buyon, u haqida ko'plab tadqiqotlar olib borildi va borgan sari unga qiziqish tobora oshyapti. Metafora folklor va adabiyotda ko'p qo'llanadi. Masalan, siz ertaklarda buyumlarning nomiga duch kelasiz — “tovuq oyogida turgan chayla” yoki “sutli daryolar, sharbatli sohillar”. Bu metaforalarning asosida esa xuddi o'sha solishtirish: chayla qurilgan poydevor shakli, suv va qumli sohilning rangi. Metaforalar ular asosida yorqin va kutilmagan timsollar yaratiladigan she'riy nutqda eng ko'p uchraydi. Masalan, yomg'irda qolib ketib ho'l bo'p ketgan odamlarni Mayakovskiy shunday tasvirlaydi: “piyodalar tumshug'i emdi yomg'irni”. Timsol bilan birlashtirilgan metaforadan foydalangan shoir odatiy hodisani kutilmagan nuqtai nazardan ko'radi. Shu tarzda metafora shunchaki shoirona nutqning ziynatigagina emas, balki muallif fikrini ifodalash vositasiga aylanadi.[1]

Yozuvchilar va shoirlar metafora adabiyot uchun o'ta zarur stlistik vosita deb hisoblashadi. Chunki ular o'z asarlariga badiiy bo'yoq berish uchun yoki bo'yoqdorlikni, emotsionallikni oshirish uchun metaforadan juda ko'p foydalanishadi. Ba'zida esa metafora butun bir gap uchun asosiy rol bo'lib kelish holatlarini ham uchratishimiz mumkin. Agar gapda metaforani tushurib qoldirsak, o'z-o'zidan gap mazmuni buziladi. Albatta metaforadan ingliz badiiy adabiyotlarida ham, she'riy asarlarida ham foydalanishadi.

The slash of sun on the wall above him slowly knifes down, cuts across his chest, becomes a coin on the floor and vanishes. (J. Updike) [2]

Bu gapda the slash of sun on the wall above him slowly knifes down, cuts across his chest, becomes a coin on the floor so'z birikmalarini metaforaga misol qilib olishimiz mumkin. Gapda quyosh nurining odam ko'ksiga tushganini metafora orqali uning ko'kragini kesib, pichoqladi deb qo'llanyapti va yana polga tushgan quyoshning soyasini tangaga aylanib qoldi deyilyapti. Albatta quyosh nuri odamni yarador qilolmasligi aniq yoki quyosh nurlari tirqishlardan o'tib, yerga kichik kichik aylanalar hosil qilib tushadi va muallif buni tangaga o'xshatyapti.

Ma'no ko'chish turlarida yana bir stilistik vosita borki, u metaforaga o'xshab ketadi. Uni o'xshatish deb atashadi, o'xshatish ham badiiy adabiyotlarda ham, she'riy adabiyotlarda ko'p uchraydi. O'xshatish asosan asarlarda -day, -dek, xuddi, kabi so'zlari bilan beriladi. “Oyday go'zal qiz”, “temirday qattiq intizom” kabi iboralar o'xshatishga yaqqol misol bo'ladi. Ingliz tilida o'xshatish **simile deb** yuritiladi va bu tilda simile **as, like, as like, such as, as if, seem** kabi so'zlar bilan bog'lanadi.

The sun was as red as ripe new blood (J.Steinbeck).

Bu yerda **quyoshni( the sun)** yangi qon kabi qizil (**as red as ripe new blood**) deb qonga qiyoslayapti va bunda **as...as** orqali simile dan foydalanilgan.

My heart is like a singing bird.

Endi bu gapga qaraydigan bo'lsak, **mening yuragim ( my heart) kuylab turgan qush kabi (like a singing bird)**. Yozuvchi bu yerda o'z yuragini qushga o'xshatyapti va **like** so'zi orqali simile dan foydalangan.

Biz sevib o'qiydigan asarlardan biri bo'lgan Antuan De Sent-Ekzyuperining “Kichkina Shahzoda” asariga qaraydigan bo'lsak,

This time, once more, I had the sheep to thank for it. For the little prince asked me abruptly – as if seized by a grave doubt – “ It is true, isn't it, that sheep eat little bushes?” [3]

Yozuvchi bu o'rinda **keskin gumonga duchor bo'lgandek( as if seized by a grave doubt)** deb ustalik bilan similedan foydalangan.

There was a moment of complete silence. Then the little prince flashed back at me, as if resentment:

“I don't believe you! Flowers are weak creatures. They are naive. They reassure themselves as best they can. They believe that their thorns are terrible weapons...”.

[4]

Yozuvchilik ustalik bilan ham metafora, ham similedan foydalangan. “Then the little prince flashed back at me, **as if** resentment” Kichkina shahzoda menga xuddi **xafadek** qaradi. Biz bu gapda similega duch kelishimiz mumkin.

#### **Flowers are weak creatures**

Bu gapda esa metafora qo'llanilgan deb ayta olamiz, chunki yozuvchi asar qahramoni tili orqali “**weak creatures**” deb gullarni nozik jonzotlarga qiyoslayapti.

Guvohi bo'lganingizdek, badiiy adabiyotlarda stilistik vositalarning o'rni juda katta ahamiyatga ega deb ayta olamiz. Tahlil davomida shuni xulosa qilib ayta olamanki, barcha yozuvchi va shoirlarning asarlari uchun stilistik vositalar muhimdir. Nafaqat yozuvchilar uchun, balki insonlarning o'zlari ham kundalik nutqlarida ulardan unumli foydalanishadi. Biz ma'no ko'chish turlaridan har xil paytda har xil o'rinlarda foydalanishimiz mumkin: ba'zan kitob o'qiyotganda, ba'zan kim bilandur suhbat qurayotganimizda va yana ko'p holatlarda. Birgina metaforaning tahlili davomida, uning gapdagi o'rni hamda jumlaning mazmunini kitobsevarning qalbiga yetkazish uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Musayev Quadrat «English Stylistics». Ingliz tili stilistikasi: Darslik. – T.: «Adolat», 2003.
2. Metaphor – Literary Terms literaryterms.net > metaphor What is a metaphor? - Definition and Examples / Grammarly [www.grammarly.com](http://www.grammarly.com).> blog
3. Antoine De Saint-Exupery «The Little Prince».

#### **Websaytlar:**

1. [https //milliycha.uz](https://milliycha.uz)